

O'ZBEK ADABIYOTIDA MAKTUB JANRINING ILK NAMUNALARINI “QUTADG‘U BILIG” ASARI MISOLIDA TADQIQ ETISH

Ergasheva Dilshoda Abdusalomovna

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası tayanch doktoranti

Samarqand davlat pedagogika instituti

E-mail: dilshodaabdusalomovna@gmail.com

Tel: (+998) 93 991-91-40

Annotatsiya. Maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg ‘u bilig” asari tarkibida keluvchi maktub janrlari tahlil qilingan bo ‘lib, ushbu janrning badiiy adabiyotda o ‘rni ushbu asar misolida yorqinlashtirilgan. Bundan tashqari maktub janrining asardagi vazifasi, janrda qo ‘llanilgan badiiy san’atlar ham o ‘rganilgan bo ‘lib, bu janr yozuvchi uchun qulay muhit yarata olishi, har qanday demokratik fikrini maktub janri orqali emin-erkin ifoda eta olgani bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: “Qutadg‘u bilig”, Kuntug‘di, O‘zg‘urmish, O‘gdulmish, maktub janri, didaktik ruh, “Vasiyatnoma”, “O‘zg‘urmishga xat”, “O‘zg‘urmishning maktubi”, “Ikkinchi maktub”.

Annotation. The article examines the expression of epistolary genre elements in the Orkhon-Enisei inscriptions. In addition, it presents the views of several scholars concerning the issue of defining the genre of these inscriptions.

Keywords: Orkhon-Enisei inscription, epistolary elements in inscriptions, address, narration and recollection, admonition and warning, author’s emotional experience, individual style, compositional structure, genre.

Qoraxoniylar sulolasi davrida ijodkorlar shuni angladiki, qattiq siyosat bilan hukmdor va xalq o‘rtasidagi yakdillikni saqlab bo‘lmaydi. Shu bois ijodkorlar tarixga murojaat qilish orqali hukmdor va xalqni tarixdan saboq olishga undadi. O‘sha davr yozuvchisi, siyosiy adib Yusuf Xos Hojib badiiy asar davlat va mamlakat hayotida qudratli omil ekanligini anglagani holda, ushbu ulkan vazifani “Qutadg‘u bilig” asari orqali bajarishga muvaffaq bo‘ldi. Asarda adolat Kuntug‘di, davlat Oyto‘ldi, aql O‘gdulmish, qanoat O‘zg‘urmish deb atalgan. Bu unsurlar bir-birini to‘ldirib, mustahkamlab turgan yurtda adolat, farovonlik bo‘ladi degan g‘oyani ilgari suradi adib. Aytish muminki, “Qutadg‘u bilig” asari mohiyatan o‘z davrining nizomnomasi vazifasini bajargan.¹

Asar o‘z davrida juda mashhur bo‘lgan. Shu bois har qaysi iqlimda asar o‘zgacha nomlar bilan yuritilavergan. Chinliklar “Odobul - mulk”, Mochin podshohining nadimlari “Oyinul mamlakat” deb atadilar, mashriqliklar

¹ Rahmonov N., O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi, T.: - 2014-yil, 104-bet.

“Ziynatul umaro”, eronliklar “Shohnomayi turkiy”, ba’zilar “Pandnomai muluk” deb, turonliklar “Qutadg’u bilig” deb atadilar.² Asar maqsadiga ko’ra didaktik ruhda bo’lgani bois, maktub janri ham asarning shu yo’nalishdagi maqsad-muddaosiga xizmat qilgan. Asarning quyidagi boblarida maktub janri mavjud: “Vasiyat” (51-55 sahifalar), “O’zg’urmishga xat” (98-101 sahifalar), “O’zg’urmishning maktubi”, (112-115 sahifalar), “Ikkinchi maktub” (117-119 sahifalar).

“Vasiyat” bobida Kuntug’dining dono vaziri Oyto’ldi kuni bitib borayotgani sabab yolg’iz farzandi O’gdulmishning keyingi hayotidan tashvishlanib eligga, ya’ni hukmdorga maktub yozadi. Bu maktub asarda vasiyatnoma deb yuritiladi. Vasiyatnomada Oyto’ldi eligga omonlik, qut tilab, o’z minnatdorchiligini bildiradi. So’ng oxirgi pand-nasihatlarini yozib, saroyda och bo’rilar borligini, xalq misoli qo’y, bek esa qoychivonligini, bekning ishi qo’ylarni bo’rilardan asrash ekanligini aytib, oxirgi o’tinchini ham keltirib o’tadi. Bu yolg’iz farzandi O’gdulmishning elig himoyatiga olishlik to’g’risidagi iltimosi edi.

Keyingi **“O’zg’urmishga xat” bobi** shunday boshlanadi: *“Kuntug’di qo’liga qog’oz, dovot oldi va maktub yozishga kirishdi:*

*Avval salom bilan boshladim bitig,
bitdim, ey tetik.
eshitdim o’zim,
yuzim.*

*Esonlik ichida
Bu yanglig raftoring
Seni orzuladim, e ko’rkli*

- Ey O’zg’urmish, - deb davom etdi maktubini elig. - Qarindoshing O’gdulmishni sening huzuringga yo’llamoqdaman. ...Yaqinlar o’zaro birlashsa, manfaat ko’payadi. Tasavvur qilgin: bo’z yer oqar suv bilan birlashgach, ming alvon chechaklar yerga to’shaladi. Agar do’st-og’aynilar bir-birlari bilan birlashib yursa, ular har qanday yovga ham bas kela oladi.

*Dunyoda haqiqiy kishi deb ataladigan **ikkita toifa** bor: ularning biri - o’rgatuvchi, bo’lagi - o’rganuvchi. Kishi bir narsani boshqalarga o’rgatmasa, yoxud o’zi o’zgalardan o’rganmasa, uning hayvondan nima farqi qoladi?!*

Agar o’zing boshqalarni mukammal o’rgangan bo’lsang, endi buni amalda qo’llagin, toki o’zgalar ham bu bilimdan bahramand bo’lishsin. U yerda sening qiladigan ishing birgina namoz bo’lsa kerak. Ehtimol oz-moz ro’za ham tutarsan? Agar sen shularga mag’rur bo’layotgan bo’lsang, toatlaring bekor. Toat qilish uchun eng qulay joy shahar va qishloq, ya’ni odamlar orasidir.

*Elga naf keltirgin, mungliga yara,
Qardoshga ko’ngil ber, ko’ngliga qara.
Yetim, tul, beva, ko’r, cho’loq yoki shol
Holidan hamisha borib xabar ol...*

² Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Тошкент, “Фан”нашриёти, 1972. Нашрга тайёрловчи филология фанлари кандидати Қаяом Каримов, 2-нашри, 8-бет

...Tirik inson o'g'li foydali bo'lsa,
Foydasiz kishilar yashamay o'lsa.
Kishiga naf berar kishi ezgusi,
Kishi ezgusidir el-yurt ko'zgusi.

Shuning uchun ham seni chorlayotirman, ey O'zg'ur-mish. Ammo o'z nafimni o'ylayotganim yo'q. Agar kelsang, nafi, foydasi - senga. ...Seni el nafi uchun taklif qilayotirman.

*Tojik donishmandlarining juda yaxshi **naqllari** bor: boshliq ezgu bo'lsa, butun el qut-saodat topadi. Maktub ushbu misralar bilan tugaydi:*

*...Ezgu bo'lar xalqqa mehribon kishi,
Mehribon bo'lin, ey ezgular boshi.*

*Mana, maktubni ham tugatdim. Boshqa so'zlarni qarindoshing yetkazadi.
Elig maktubni o'radi. Muhrini bosdi”.*

Ko'ramizki, ushbu maktub asar tarkibida kelgan birinchi maktub bo'lib, u asardagi bosh qahramon elig Kunto'g'di tomonidan O'gdulmishning qarindoshi, zohidona hayot kechirishni ixtiyor qilgan O'zg'urmishga yozilgan. Xat kompozitsion jihatdan kirish, asosiy qism va tugallanishdan iborat bo'lib, maktub an'anaviy salom berish, maktub yo'llanuvchi shaxs fazilatlarini bir muncha maqtash bilan boshlanib, asosiy maqsad-muddaoga o'tilgan. Ya'ni elig istaydiki, tajribali, ilmi kishilar o'z fuqarolari ichida yashasa va o'zining hikmat nurlarini oddiy avomga ulashsa. Maktubning yozilishidan maqsad shu, aslida. Maktub muallif tomonidan ikki xil ko'rinishda nazm va nasrda berilgan bo'lib, salomlashish, fikrini dalillash kabi o'rinlarda nazmdan foydalanilgan bo'lsa, asosiy mazmun nasr orqali ifoda etilgan. Ushbu maktubda tojik naqllaridan ham o'rinli foydalanilgan. Diqqatga sazovor yeri shundaki, adib adolatli jamiyat adolatli podshoh orqali amalga oshadi degan fikrni ilgari suradi va maktub janri orqali adolatli shoh qanday bo'lishi kerakligini, fuqarosi bilan samimiy munosabat o'rnatish, holini bilishi uchun “adolat ko'rsatayin” deb qalbiga qo'l solishi kerakligini ushbu janr orqali misol tariqasida aniq va ravshan bayon etadi: *“Eshitishimcha, sen yaqin-qarindoshlardan kechib, ... faqat toat-ibodatni deb tog'larda yashashni ixtiyor etibsan... Ochiq aytaver, agar senga biror sitam yetgan bo'lsa, chorasini qilaylik... Senga adolat ko'rsatayin”.* Asarda keltirilgan Kunto'ldining “O'zg'urmishga maktub”ida nazmiy o'rinlar 24 misrani tashkil etadi. Unda ezgu kishi el-yurt ko'zgusiga qiyoslanadi. “O'z nafini tilagan bag'irsiz bo'lur”, - deydi Kunto'g'di. O'zg'urmish elig tomonidan “tetik, ko'rkli yuzum, ezgular boshi” deya e'tirof etiladi.

O'gdulmish elig maktubini O'zg'urmishga yetkazadi va O'zg'urmish ham o'z o'rnida hukdorga maktub yo'llaydi.

“- Ey tetik, - dedi O'zg'urmish O'gdulmishga qarab, - mayli, maktub desang, maktub bitayin.

- So'ng u davot, qog'oz oldi, qalam so'radi va eligga maktub yozishga tutindi.

Maktub lutf bilan boshlanadi: *“Ey elig! Senga duolar bilan to'la maktubimni yo'llamoqdaman. Sen maktub orqali meni yo'qlabsan, uni o'qidim, ko'zim yorug' bo'ldi. Sen ezgu yorlig', ko'pdan-ko'p o'git va nasihatlar bilan menga marhamat ko'rsatibsan”*. Yusuf Xos Hojib o'z asari orqali adolatli (demokratik) jamiyatda huquqlar tengligini targ'ib qilib, bu g'oyani u O'zg'urmishning maktubi mazmuniga quyidagicha singdirgan: *“Yana bir andisha ham bor: sen ham, men ham insonmiz. Ikkalamiz ham inson bo'lganimizdan keyin nima uchun men senga topinib-sig'inishim, senga xizmat qilishim kerak?! Ey elig! Senga xizmat qilishga tayyorman”*. O'zg'urmishning javob maktubida adib ming yilliklar tarixiga ega bo'lgan “Avesto”da, “Shohnoma”da, keyinchalik “Xamsa” asarlarida ham qo'llanilgan, sharq adabiyotida an'anaviy to'rt shartdan unumli foydalanadi. Bu asardagi ikkinchi maktubda quyidagicha o'z ifodasini topgan: *“Buning uchun bitta shartim bor. Uni bajarsang, har qanday ishlaringga bo'yin beraman:*

*Bajo etgin avval so'ngsiz tiriklik,
Yana bir qarilik ko'rmas yigitlik.
Salomat tut keyin bo'lmayin kasal,
Bir boylik berginki, bo'lmay kambag'al.
...Bularni berolsang, ey elga boshim,
Senga qul bo'layin, egayin boshim!”*

O'z o'rnida O'zg'urmish ham eligga nasihat qiladi:

*G'ofil bo'lma, elig, uxlama, ko'z och,
Sendan keyin qolsin. ezgu urug' soch!*

Asarda, ma'lumki, O'zg'urmish qanoat, sabr timsoli. U javob maktubida *“butun dunyo - bir siqim. Boriga qanoat qila bilish ham baxt”*, - deydi. Va yana hukmdorga maktubida shunday yuzlanadi: *“Chinakam naf ko'rmoqchi bo'lsang, mendan ham nafliroq narsa bor. Bu - bilim, aql-idrokdir”*. Maktub shunday yakunlanadi: *“Boshqa gaplarni qarindoshimga aytdim. U oqizmay-tomizmay senga yetkazadi”*. Adib maktub janriga oid tafsilotlarni asarida batafsil keltirgan. Masalan, *“O'zg'urmish maktubiga nuqta qo'ydi. Qog'ozni quritib, maktubni o'radi. Uni bog'lab O'gdulmish qo'liga tutqazdi”*.

Asarda uchinchi maktub yana elig tomonidan O'zg'urmishga yozilgan va u asardagi so'nggi maktubdir. Asarda uchinchi maktubdan keyin ham elig tomonidan O'zg'urmishga og'zaki tarzda yetkazilgan hamda O'zg'urmish vafoti oldidan O'gdulmishga ramziy ma'no ifodalovchi predmet orqali o'z fikrni yetkazish o'rinlari mavjud. Masalan, bu voqealar “Qutadg'u bilig”ning “Ozg'urmishning uzri” bobida 145-sahifada maktub yozishga ne hojat deyiladi va elig o'z istagini O'gdulmish orqali og'zaki yetkazishni ma'qul ko'radi. Bundan ko'rinadiki, maktub janri xoh yozma, xoh og'zaki tarzda bo'lsin, u ikki taraf o'rtasida

fikr yetkazish vositasidir.

Asarning 178-

sahifasida “Noxush xabar” bobida esa O‘zg‘urmish o‘limidan oldin O‘gdulmishga rakva bilan tayoq meros qoldirgan bo‘ladi.³ Bu ikki predmet O‘zg‘urmishning O‘gdulmishga yo‘llagan ramziy mazmundagi o‘giti, pand-nasihati desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Endi asarda **“Ikkinchi maktub”** bobidagi to‘rtinchi maktubni tahlil qilsak. *“Elig yana davot va qog‘oz talab qildi. Qo‘liga qalam olib maktub yozdi”, - deyiladi asarda. “Avvalo senga ko‘p olqish, yuz ming salomlar yo‘llayman, ey zakovati tugal. Ko‘nglimda bor gaplarni bitib maktub yuboryapman”, deya maktubini boshlaydi elig. Yusuf Xos Hojib ushbu maktubdagi quyidagi jumlar orqali butun dunyo podshohlariga ilm ahliga hilmli bo‘lishi, sabrli bo‘lish lozimligini o‘qtiradi, go‘yo: “Senga shakardan shirinroq so‘z aytgan edim, og‘udan ham achchigroq javob keldi. So‘zlarimni yana bir marta eshitib, ko‘nglingga ol, ey bag‘irdosh mardim”. Elig o‘z so‘zlarini maktubida isbotlash uchun “Ey men tomon kelmagan, bu so‘zni eshit, pokiza, asli ulug‘ dono nima deydi: “Kishilarga nafli bo‘lgan, ey dono, kishilarga nafkeltirgan kishini haqiqiy er deb atash kerak”. Va yana fikrini davom ettirib, “Naf keltirmaydigan odam tirik kishilar orasidagi o‘likdir. Narsa ulashish saxiylik emas. Saxiylik joni va borini fido eta bilishdir. Uzun so‘z zerikarli bo‘ladi. Uquvli kishilar so‘zni oz qilishadi... Qolgan so‘zlarni qardoshing yetkazadi», - deya elig xatni tugatadi.*

Ushbu maktubda elig O‘g‘urmishga “ey zakovati tugal”, “ey donishmand”, “bag‘irdosh mardim”, “ey dono” deya erkalab murojaat qiladi. Aytish mumkinki elig va zohid o‘rtasidagi maktublarda go‘zal estetik iltifot, hurmat bilan bir qatorda, o‘z fikrini to‘g‘ri va erkin ifoda etish ham bor. Ayniqsa, O‘zg‘urmish fikrlarini ochiq ifoda etishda bu yaqqol ko‘rinadi.

Xulosa qilib, “Qutadg‘u bilig” asari Yusuf Xos Hojibning o‘ziga xos betakror asari bo‘lib, o‘zbek adabiyotida alohida mavqega ega. Ushbu asar turkiy adabiyotning ilk yirik didaktik (o‘gitnoma) asarlaridan biri ekanligi bilan bir qatorda, asar tarkibida turkiy adabiyotdagi ilk yozma maktub janriga oid parchalarni uchratamiz. **“Qutadg‘u bilig”** — adolatli jamiyat qurish, davlat boshqaruvi, axloqiy poklik, bilim va ma’rifatning kuchi haqida chuqur falsafiy o‘gitnoma bo‘lgani bois, maktublardagi fikrlar ham, asosan, ushbu mazmun atrofida aylanadi. Maktub janri asarning asosiy g‘oyasi: **adolat, aql, bilim va axloqiy komillik orqali ideal jamiyat va baxtli hayot qurish ideasiga xizmat qilgan. Adolat va to‘g‘rilik – davlatning poydevori, aql, bilim va donishmandlik – jamiyat taraqqiyotining omili ekanligi, axloqiy poklik va halollik – insoniy oliy fazilatligi, chinakam baxt to‘g‘ri yo‘lni tanlay bilishdaligi bilan ushbu asar davlat boshqaruvi san’ati borasida hukmdorlar uchun**

³ Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. - T.: Cho‘lpon. 2007-yil, 178-bet.

qo'llanma vazifasini ham o'tagan. Bizning tadqiqot ob'yektimiz hisoblangan maktub janri asarda muallif g'oyasini yuzaga chiqarishda, o'quvchiga yozuvchi nazarda tutgan fikrni yetkazib berishdagi asosiy qurol sifatida xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. - T.: Cho'lpon. 2007.
2. Xudoyqulov E. Adabiyotshunoslikka kirish. - T. Fan. 2006.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. - T. Fan. 2007.
4. Rahmonov N., O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi, T.: - 2014.
5. Boqijon To'xliyev, Barno Abdurahmonova. Adabiyot, majmua. -T. Cho'lpon. 2010.